



JAHON FOLKLORSHUNOSLIGIDA KULGIGA ASOSLANGAN FOLKLOR JANRLARINING O'RGANILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10341698>

Xolbutayev G'ayratbek Oybek o'g'li

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: gayratbek19912705@mail.ru

+998 94 108 6008, +998 99 040 6008

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada rus va g'arb olimlari kulgiga asoslangan folklor janrlarini ijtimoiy, psixologik va lingvistik jihatdan o'rganish ishlari, komik matnning tinglovchi ruhiyatiga ta'siri, askiyaning kulgi nazariyasiga mutanosibligi kabi masalalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar

kulgi, folklor, askiya, kulgi nazariyasi, komik, psixifolkloristika.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются работы российских и западных ученых по социально-психологическому и лингвистическому изучению смехотворных фольклорных жанров, исследуются такие вопросы, как влияние комического текста на психику слушателя, значение асции с теорией смеха.

Ключевые слова

смех, фольклор, асия, теория смеха, комическое, психофольклористика.

ABSTRACT

This article examines the work of Russian and Western scientists on the socio-psychological and linguistic study of ridiculous folklore genres, exploring issues such as the influence of a comic text on the listener's psyche, the meaning of askia with the theory of laughter.

Key words

laughter, folklore, askia, theory of laughter, comic, psycho-folkloristics.

KIRISH

Jamiyat tarixinining turli bosqichlarida odamlarning ruhiy holatini yaxshilash, ularning turmush tarzini ifodalash, hayot mashaqqatlari va ularning yechimlarini topish, xalqning orzu-umidlari, quvonch-u tashvishlari, armonlari og'zaki ijod namunalarida o'z badiiy ifodasini topgan. Xalq o'z eposida orzusidagi qahramon,



jasur o‘g‘il-qizlari obrazini yaratgan bo‘lsa, ertaklar va boshqa og‘zaki nasriy, lirik asarlarida ham o‘z idealidagi qahramonlarni jonlantirdi. Og‘zaki dramalar, xususan, kulgi va yumorga yo‘g‘rilgan og‘zaki asarlarda ham xalqning bu an’anasi davom etib, donishmand, zukko, hozirjavob, mug‘ombir kishilar obrazlarini yaratishga intilgan. Xalqning estetik ehtiyojini qondirishga bo‘lgan intilishlari hayotimizdagi turli muammo va kamchiliklarni kulgi fonida tanqid qilish, tanqid bilan bir qatorda odamlarning ruhini tinchlantirish, kayfiyatini ko‘tarishni maqsad qilib qo‘yan. Ayni shu ezgu maqsad og‘zaki adabiyotning gurkirab rivojlanishi, poetik taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Natijada turli zukko kishilar timsolini badiiy ifodalagan latifalar, shingil hazillar va askiya maydonga kelgan.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Xorijlik tadqiqotlar kulgining psixologik mohiyatini ochib berish, kulgining ijtimoiyligi va siyosiy vazifalari kulgi san’atning alohida ko‘rinishi sifatida va umuman kulgini alohida estetik hodisa sifatida o‘rganishgan. Jumladan, kulgining ijtimoiyligi (A.V.Dmitriyev), psixologik mohiyati (L.S.Vigotskiy, A.N.Luk, P.V.Simonov, P.M.Yershov), kulgining estetik ahamiyati (Yu.B.Borev, A.Z.Vulis, A.F.Losev, M.T.Ryumina, L.N.Stolovich, V.P.Shestakov), falsafiy qimmati (L.V.Karasev), siyosiy ahamiyati (V.V.Razuvayev), lingvistik xususiyatlari (V.Z.Sannikov, X.X.Do‘smatov), badiiy adabiyotdagi o‘rni (P.N.Berkov, V.I.Demin, A.Ye.Kunilskiy, A.P.Moskovskiy, D.P.Nikolayev, L.A.Spiridonova, Yu.V.Stennik, M.N.Chernyavskiy), madaniyat tarixida tutgan o‘rni masalalari (S.S.Averinsev, D.S.Lixachev, A.M.Panchenko, N.V.Ponirko), shuningdek, komediyaning alohida janrlariga bag‘ishlagan: komediya (N.M.Fed, V.N.Yarxo), satira (V.I.Adrianova-Perets, L.A.Plotkin), parodiya (V.L.Novikov, Yu.M.Tinyanov, O.M.Freydenberg), latifa (Ye.Ya.Kurganov, V.P.Rudnev, Ye.Ya.Shmeleva, A.D.Shmelev) va boshqalarning tadqiqotlari yaratildi.

Kulgi muammolari va kulgi madaniyati A.S.Axiyezer, Yu.M.Boroday, P.Vayl, A.Genis, A.Ya.Gurevich, S.S.Gusev, G.L.Tulchinskiy va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida turli aspektlarda o‘rganildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqlolada kulgining ma’naviy hayotimiz va xalqimiz badiiy tafakkuri taraqqiyotida tutgan o‘rni, askiya matnlari badiyyatining o‘ziga xosliklari, askiya ijrochilarining ijro uslubi va mahorat qirralari alohida tadqiq etish zarurati ochib berildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR



Ma'lumki, hazil va kulgi har qanday xalqning madaniy-estetik qarashlarini u yoki bu jihatdan o'zida ifoda etadi. Askiya ham o'zbek xalqining teran tafakkur sohibi, hazilni san'at darajasida madaniyatli ifodalay oladigan donishmand, zukko xalq ekanligini ko'rsatadi. Askiyada hukmronlik qiladigan ikkinchi ma'noviy qobiq – ya'ni tag ma'no anglatilishi yashirin holda bo'lishi va hech kimning shaxsiyatiga tegmasdan, hech kimni kamsitmasdan hamda ranjitmasdan kayfiyatini ko'tarishning san'at darajasidagi ko'rinishi bo'lib, ijrochi san'atkorning mahoratini belgilab beradi.

Askiya kulgi hosil qilishga qaratilgan, yumorga asoslangan og'zaki so'z san'ati sifatida qadimdan xalqimiz orasida ma'lum va mashhurdir. Askiya ijro uslubiga ko'ra ikki va undan ortiq ijrochilarining taraf-taraf bo'lib, bellashuviga asoslangan kulgi qo'zg'atuvchi og'zaki ijod janri. Uning ijrochilari professional ijro mahoratiga ega, nozik ta'b, hozirjavob, o'ta so'zamol bo'lishi talab etiladi.

Yumorga va kulgiga asoslangan og'zaki asarlarning mohiyatida yetakchi g'oya tinglovchilarni kuldirish, ularning kayfiyatini ko'tarish, turmush mashaqqatlari va hayot tashvishlarini bir dam bo'lsa-da, unutishlari, ruhan tetiklashib olishlarini maqsad qilib qo'yganlar.

Og'zaki ijod namunalarida kulgi bilan bog'liq asarlarni o'rganish, ularning badiiy-estetik imkoniyatlari borasida mulohazalar bildirish, asosan, o'tgan asrning boshlarida olimlarning e'tibor markaziga tushdi.

1916-yilda tatar olimi va ma'rifatparvari G.Ibrahimov "Adabiyot darslari" nomli risolasida *mazak* – **mazax** janrining o'ziga xosligi borasidagi munosabatlarini bildirgan. Olim adabiyot ixlosmandlariga *mazak* janrining og'zaki ijodda alohida adabiy hodisa ekanligiga qisqa tushuntirish berib o'tadi. U adabiy asarlarni ichki sifatlariga, ya'ni mazmun va mundarijasiga ko'ra yetti turga bo'lib tasniflaydi.

Yaqut folklorini o'rgangan S.V.Yastremskiyning qayd etishicha, qadimgi yaqutlar dafn marosimida ham kulgidan foydalanishgan. Ular kulgini ilohiy tushuncha, ruhlar bilan bog'lanishning bir ko'rinishi deb qaragan³. S.V.Yastremskiy kulgini yengil kulgi – bu kundalik hayotimizda uchraydigan holat va hodisalar ustidan kulish, ilohiy kulgi – odamning ruhlar olami bilan bog'lashdagi kulgi sifatida talqin qiladi.

XX asrning oxirlarida F.Xatipov va A.Yaxinlar tomonidan hazilga asoslangan *mazax* janri nazariy tadqiq etildi. F.Xatipov "Epik janrlar" nomli monografiyasida "Mazax janri xususida" degan bo'lim ajratdi. Shuningdek, ishning "Новелла. Рассказ" bobida novella va xalq hazilining janrlararo munosabatlarini tekshirgandi⁴.

³ Ястремский С. В. Образцы народной литературы якутов. – Л.: Изд-во Академии Наук СССР, 1929. – С. 34.

⁴ Хатипов Ф. Эпик жанрлар. – Казан: Татар. кит. нэшр., 1973. – 49 б.



A.Yaxin o‘zining “Tatar folklori tizimi” nomli monografiyasini latifalar tadqiqiga bag‘ishladi va u shu janrga doir og‘zaki asarlar tadqiqiga bag‘ishlangan bir necha maqolalar e’lon qildi⁵.

Etnografik yo‘nalishda askiya o‘zbek xalq teatrining ajralmas bir qismi sifatida A.L.Troitskaya tomonidan tadqiq etilgandi⁶. Olima o‘zining o‘zbeklar haqidagi kuzatishlari va dala yozuvlari asosida askiyaning ijro etilishi, uning ba’zi turlari borasida o‘z mulohazalarini bayon qiladi. Tutol askiya shaklini yo‘qolib ketgan ko‘rinishi sifatida gapirib o‘tadi. Ammo R.Muhamadiyev esa A.L.Troitskayaning bu fikrlariga e’tiroz bildirib, tutol unutilmagan, aksincha, askiyaning murakkab shakli ekanligini qayd etadi⁷.

Kulgining ijtimoiyligi va hayotimizdagи mohiyati borasida XX asr fanida turli tadqiqotlar yaratildi. R.Muhamadiyevning nomzodlik dissertatsiyasi garchi hukmron mafkura ta’sirida bo‘lsa-da, o‘zbek folklorida askiyaning mustaqil janr ekanligini asoslashga qaratilgan bиринчи tadqiqot edi.

XX asrning oxiri va yangi asr boshlarida xalq kulgisi nafaqat folklorshunoslik muammosi, balki ijtimoiy soha fanlarining muhim tadqiqot obyekti ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yangi asr ilmiy tadqiqotlarida xalq kulgisining falsafiy-ijtimoiy muammolarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi.

2004-yilda A.A.Sichov kulgiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Faylasuf olimning uqtirishicha, kulgi bu ijtimoiy hodisa bo‘lib, muhim falsafiy ahamiyatga ega tushuncha. Kulgi nafaqat insonga yaxshi kayfiyat bag‘ishlaydi, balki uning muayyan muammolarini, hayotiy qiyinchiliklarning yechimini topishda ham o‘ziga xos ahamiyatga ega ekan⁸. Kulgida hayotiy ijtimoiy muammolarning tanqid ostiga olinishi uning yechim topishida muhim vazifa bajaradi. Ijtimoiy muammolarning bu xil yechimi yengil shakl sifatida baholanadi.

Taniqli folklorshunos V.Ya.Propp 1976-yilda e’lon qilgan “Komizm va kulgi muammolari”ga bag‘ishlangan monografiyasida adabiy asardagi komik holatni tadqiq etishda kulgining o‘rnini aniqlash zarurligini alohida ta’kidlaydi. Olimning qayd etishicha, folklor asarlarida badiiy ifodalangan kulgi komik obrazlarning yaratilishi, yozma adabiyotdagi satirik va humoristik asarlarning maydonga kelishiga zamin yaratgan.⁹

Olim kulgining hosil bo‘lish o‘rni va ifodasiga ko‘ra psixologik nuqtai nazardan tasniflab, ularning farqli tomonlarini ochib beradi. V.Ya.Propp tomonidan sanab o‘tilgan kulgi turlari folkloarning turli janrlarida uchraydi. U “Biz uchun kulgining turlari bevosita yoki bilvosita komik muammolar bilan bog‘liq

⁵ Яхин А. Система татарского фольклора. – Казан: Тат. кит. нэшр. 1984. – 120 с.

⁶ Троицкая А.Л. Народный театр в Узбекистане // Восточный сборник. 1990. Вып. № 4. – С. 144-151.

⁷ Мухамадиев Р. Асия (Ўзбек халқ ижодиётининг жанри): Филол.фан.номз... дисс. – Тошкент, 1961. – Б. 7.

⁸ Сычев А.А. Смех как социокультурный феномен: Автореф.докт.философ. наук. – Саранск, 2004.– 36 с.

⁹ Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – М.: Искусство, 1976. – 183 с.



bo‘lib, bu yerda imperik tarzda tuzilgan ro‘yxatga hojat yo‘q, bu o‘rinda ba’zi bir asosiy toifalarni belgilash kifoya. Biz uchun muhim bo‘lgan shakli masxaraga asoslangan kulgidir”,¹⁰ – deydi. Darhaqiqat, olim to‘g‘ri qayd etib o‘tganidek, masxaraga asoslangan kulgi komizm bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, kulgingin estetik shaklidir. Mana shu masxaraga asoslangan kulgi og‘zaki adabiyotda komizm, humor va satiraning kelib chiqishiga hamda muayyan adabiy-estetik xarakter kasb etishiga asos bo‘lgan.

1961-yilda o‘zbek folklorshunosligida R.Muhamadiyevning nomzodlik dissertatsiyasi askiya poetikasining spetsifikasini tadqiq etishga bag‘ishlangan birinchi tadqiqot ishlaridan biri edi. Atoqli alloma Hodi Zarif ilmiy rahbarligida bajarilgan bu tadqiqot askiyaning turlari va ularning o‘ziga xosliklarini ilmiy asosda tadqiq etishga qaratilganligi bilan xarakterlidir.

Olim askiyaga bag‘ishlangan tadqiqotida xalq milliy urf-odatlari, an’analari va qadriyatlarining xalq tarixida tutgan o‘rni borasida o‘rinli mulohazalarini bildiradi. Dissertatsiyaning birinchi bobida tadqiqotchi askiya so‘zining etimologiyasi borasida tekshirishlar olib boradi. U dastlab mazkur so‘zning lug‘aviy ma’nosini borasidagi mulohazalarini o‘rganar ekan, hatto xalq askiyachilari ham askiya so‘zi qanday ma’no anglatishi borasida tushunchaga ega emasligini qayd etib o‘tadi va qadimiy qo‘lyozmalar, lug‘atlar (Muhammad G‘iyosiddin ibn Jaloliddin tomonidan tuzilgan “G‘iyosul-lug‘at”) asosida askiyaning “zakiy” so‘zidan olinganligi va *zakiyo-askiya* so‘zlari o‘tkir zehnlilik, tez tushuna olishlik, ziyraklik, nozik fahmlilik kabi ma’nolarni anglatishi, uning talaffuz va yozuvda qay tariqa askiya shaklini olganligi borasidagi dastlabki filologik xulosalarni olg‘a suradi.

Rus xalqida ham humor zukkolik va hozirjavoblik bilan uyg‘un holda uchraydi. M.Churmayevaning¹¹ fikricha, zukkolik dastlab hozirjavoblik ko‘rinishida maydonga kelib, jamiyat taraqqiyotining ilk davrlaridan to XVIII asrgacha xalq orasida keng tarqalgan va xalq og‘zaki ijodida o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘lgan. Zukkolik, hozirjavoblik hazilning ajralmas tarkibiy qismidir. Askiyada ham zukkolik va hozirjavoblik ijrochining mahoratini belgilab beruvchi muhim omillardan hisoblanadi.

XULOSALAR

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, askiya jahon va turkiy xalqlar filologiya fanida alohida mustaqil tadqiq etilmagan, faqat XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab og‘zaki so‘z san’ati namunasi sifatida o‘rganila boshlangan. Jahon fanida semantik va funksional jihatdan askiya bilan mushtarak bo‘lgan janrlar ham, asosan, o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy jamoatchilikni

¹⁰ Пропп В. Я. Проблемы комизма и смеха. – М.: Искусство, 1976. – С. 123.

¹¹ Чурмаева Н.В. Почему остроумный? // «Русская речь», 1969. – №1. – С.86.



qiziqtira boshladi. Rus va g‘arb olimlari kulgiga asoslangan folklor janrlarini ijtimoiy, psixologik va lingvistik jihatdan o‘rganish ishlarini amalga oshirdilar;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Адыгёзалова М.Н. Синтез: к истории и литературно-философским контекстам понятия – тема научной статьи по языкоznанию и литературоzедению читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка <https://cyberleninka.ru/article/n/sintez-k-istorii-i-literaturno-filosofskim-kontekstam-ponyatiya>
2. Мухамадиев Р. Асқия (Ўзбек халқ ижодиётининг жанри): Филол.фан.номз... дисс. – Тошкент, 1961. – Б. 7.
3. Пропп В. Я. Проблемы комизма и смеха. – М.: Искусство, 1976. – С. 123.
4. Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – М.: Искусство, 1976. – 183 с.
5. Сычев А.А. Смех как социокультурный феномен: Автореф.докт.философ. наук. – Саранск, 2004.– 36 с.
6. Троицкая А.Л. Народный театр в Узбекистане // Восточный сборник. 1990. Вып. № 4. – С. 144-151.
7. Ф.М. Аскарова (2021). Theoretical & Applied Sciense, 276-280. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=4auK6XcAAAAJ&citation_for_view=4auK6XcAAAAJ:9yKSN-GCB0IC
8. Хатипов Ф. Эпик жанрлар. – Казан: Татар. кит. нэшр., 1973. – 49 б.
9. Холбутаев, Г. О. (2020). «АСКИЯ» КАК НАЦИОНАЛЬНАЯ СМЕХОВАЯ КУЛЬТУРА. Редакционная коллегия, 199. <https://hcommons.org/deposits/objects/hc:38080/datstreams/CONTENT/cont ent#page=200>
10. Ястребский С. В. Образцы народной литературы якутов. – Л.: Изд-во Академии Наук СССР, 1929. – С. 34.
11. Яхин А. Система татарского фольклора. – Казан: Тат. кит. нэшр. 1984. – 120 с.